



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 474 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назолат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
Nozimabonu Tojiboyeva	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
O'ktamova Shohida Odilbek qizi	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
N. S. Mirbabayeva	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
Kamalov Rustam Azizovich	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
Toshtemirova Sarvinoz Obidovna	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
G'ofurova Umida O'tkirbek qizi	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
Xalikova Xurshida Abdullayevna	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
Xudoyberdiyeva G. Sh.	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
Аманова А. А., Саттарова М.	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
Каримова Наргиза Абдугафуровна	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
Toxirov Feruz Jamoliddinovich	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	315
<i>Эсонов Мунавваржон Мукумжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	359
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Bo'linishga doir olimpiada masalalarini yechish metodikasi va ularning ilmiy-amaliy tahlili	365
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni vujudga kelish omillari	369
<i>Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi</i>	
Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	374
<i>Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich</i>	
Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati	379
<i>Abdusalomov Doniyor Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	383
<i>Ali Tursaotov</i>	
Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning sanogen refleksiyani rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari	388
<i>Ismailov Murodulla Kaxramonovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish 395 Madjitova Sitara Sobit kizi
	Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv 399 Umbarova Nasiba Xolboy qizi
	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish omillari 402 Ummatov Baxtiyor
	Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati 407 Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboyev Navruz Ilhombek o'g'li
	Ta'lim tizimida gender tengligi 410 Nazarova Malohat Axmedovna, Sayfiddinova Barno, Axmedova Nasiba
	Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning mazmun-mohiyati 414 Odilova Mahfuza Ochilovna
	Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ota-ona va surdopedagog hamkorligini rivojlantirish texnologiyasi 418 Rahimova Nargiza Alisherovna
	O'zbek tili darslarida milliy kontentga asoslangan matnlarni tanlash tamoyillari 421 Saparbayeva Indira Shadibekovna
	Autizm sindromi - o'rganilish tarixi va zamonaviy metodikalar tahlili 424 Jo'rayeva Sayyora Axmadjon qizi
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish 428 Sharafutdinova Durдона Akmelevna, Niyazova Umida Shomansurovna
	Tabiat bilan tanishtirishda turli metodlarni qo'llash va tabiat bilan tanishtirishning pedagogik ahamiyati 433 Xalmatov Misiddin Muxammadovich
	Kommunikativ qobiliyat tushunchasining psixologik mazmuni 437 Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna
	Biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari 443 Moxigul Muydin qizi Burxanova
	Культура речи медицинского работника 447 Рузметова Наргиза Ахмедовна
	Образ города как пространства памяти и идентичности в прозе дины рубиной 454 Чернова Татьяна Алексеевна, Назаров Бехруз, Фарходов Диёрбек, Бурибайев Нодир
	Rang konseptlarining lingvomadaniy tabiati va pedagogik ahamiyati: nazariy asoslar 457 Arabova Gulinur Yuzboy qizi
	Rang konseptlarini o'qitishga oid xalqaro tadqiqotlar tahlili: ilmiy bo'shliqlar va metodologik istiqbollari 461 Arabova Gulinur Yuzboy qizi
	Типология трудностей формирования навыков иноязычного говорения в начальной школе 466 Огай Мукаддасхон Халваевна



BO'LAJAK TARBIYACHILARNING ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARDA IJTIMOY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHGA KASBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH



Madjitova Sitora Sobit kizi
 Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
 pedagogikasi milliy instituti
 2-kurs doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan yoritiladi. Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning kengayishi tarbiyachidan nafaqat umumiy pedagogik bilimlarni, balki bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini anglash, emotsional holatini tushunish, muloqotga kirishish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv jarayonini boshqarish kompetensiyalarini ham talab etadi. Maqolada ijtimoiy intellekt tushunchasining mazmuni, uning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar rivojlanishidagi o'rni, bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda zarur bo'lgan pedagogik, psixologik va metodik komponentlar tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy pedagogik ta'lim jarayonida nazariy bilim, amaliy ko'nikma, refleksiv yondashuv va korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni uyg'unlashtirish orqali tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarbiyachilar, alohida ta'lim ehtiyojlari, ijtimoiy intellekt, kasbiy tayyorgarlik, maktabgacha ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, korreksion-rivojlantiruvchi ish.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical analysis of the formation of future preschool educators' professional readiness to develop social intelligence in children with special educational needs. The expansion of the inclusive approach in the preschool education system requires educators not only to possess general pedagogical knowledge but also to develop competencies related to understanding children's individual developmental characteristics, recognizing their emotional states, supporting their communicative opportunities, and managing the process of social adaptation. The article analyzes the essence of social intelligence, its role in the development of children with special educational needs, and the pedagogical, psychological, and methodological components required in the professional training of future preschool educators. The study also substantiates the possibilities of improving educators' professional readiness by integrating theoretical knowledge, practical skills, reflective approaches, and correctional-developmental activities within higher pedagogical education.

Key words: future preschool educators, special educational needs, social intelligence, professional readiness, preschool education, inclusive education, social-communicative development, correctional-developmental work.

Аннотация: В данной статье научно-педагогически освещается проблема формирования профессиональной готовности будущих воспитателей к развитию социального интеллекта у детей с особыми образовательными потребностями. Расширение инклюзивного подхода в системе дошкольного образования требует от воспитателя не только общепедагогических знаний, но и компетенций, связанных с пониманием индивидуальных особенностей развития детей, осмыслением их эмоционального состояния, поддержкой коммуникативных возможностей и управлением процессом социальной адаптации. В статье анализируются содержание понятия социального интеллекта, его значение в развитии детей с особыми образовательными потребностями, а также педагогические, психологические и методические компоненты, необходимые в профессиональной подготовке будущих воспитателей. Кроме того, обосновываются возможности совершенствования профессиональной готовности воспитателей посредством интеграции теоретических знаний, практических навыков, рефлексивного подхода и коррекционно-развивающей деятельности в процессе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: будущие воспитатели, особые образовательные потребности, социальный интеллект, профессиональная готовность, дошкольное образование, инклюзивное образование, социально-коммуникативное развитие, коррекционно-развивающая работа.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi, muloqotga kirishish ko'nikmalari va emotsional-barqaror rivojlanishini ta'minlash bugungi pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bola shaxsining dastlabki ijtimoiy tajribasi aynan maktabgacha yosh davrida shakllanadi. Shu bois bu bosqichda tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi, uning bolani tushunish, individual ehtiyojlarini aniqlash, ijtimoiy munosabatlarga jalb qilish va rivojlantiruvchi muhit yaratishdagi mahorati alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy intellekt bolaning boshqalar bilan munosabat o'rnatish, emotsiyalarni anglash, vaziyatga mos xatti-harakatni tanlash, hamkorlik qilish, o'z fikrini ifodalash va ijtimoiy qoidalarni tushunish qobiliyatlari bilan bog'liq murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ushbu sifatlarni shakllantirish tabiiy rivojlanish jarayoniga nisbatan ko'proq pedagogik yordam, moslashtirilgan metodika, barqaror kommunikativ muhit va individual yondashuvni talab etadi. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarni bunday faoliyatga tayyorlash faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki amaliy, metodik, refleksiv va korreksion-rivojlantiruvchi kompetensiyalarni kompleks shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'lim tamoyillari, maxsus pedagogika asoslari, bolalar psixologiyasi, kommunikativ rivojlanish texnologiyalari va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini o'zaro bog'liq holda o'rgatish zarur. Chunki tarbiyachi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga nisbatan faqat yordam ko'rsatuvchi shaxs emas, balki uning ijtimoiy faolligini rag'batlantiruvchi, tengdoshlari bilan munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi, ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik qiluvchi pedagogik subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa inklyuziv muhitda har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ochish, muloqot madaniyatini shakllantirish va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlash masalasi milliy ta'lim siyosati, maktabgacha ta'lim metodikasi, inklyuziv pedagogika va psixologik rivojlanish nazariyalari bilan uzviy bog'liqdir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, rivojlantiruvchi muhit yaratish va ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlanadi.

Qodirova, Hasanboyeva, Jalolova, Rasulova va Po'latova asarlarida maktabgacha ta'lim, maxsus pedagogika va inklyuziv yondashuvning metodik asoslari yoritilgan. Vigotskiy, Bandura va Gardner qarashlari bola rivojlanishida ijtimoiy muhit, taqlid, hamkorlik va individual qobiliyatlarning ahamiyatini asoslaydi. Thorndike, Goleman, Salovey va Mayer tadqiqotlari esa ijtimoiy hamda emotsional intellektni shakllantirishda muloqot, empatiya va emotsional anglashning muhimligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuziv yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, faoliyatli yondashuv hamda korreksion-rivojlantiruvchi pedagogika tamoyillariga tayanildi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ madaniyati, empatik munosabati va refleksiv tayyorgarligini bir butun tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish, suhbat, anketa, pedagogik diagnostika va tajriba-sinov elementlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarni o'rganish orqali ijtimoiy intellekt tushunchasining psixologik-pedagogik mazmuni, uning maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachining kasbiy funksiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda nazariy bilim va amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviylik darajasini baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Amaliy bosqichda bo'lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta'limga munosabati, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish xususiyatlarini bilish darajasi, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etishga tayyorligi hamda pedagogik vaziyatlarni hal qilish malakalari o'rganildi. Buning uchun muammoli pedagogik vaziyatlar, rolli mashg'ulotlar, keys-topshiriqlar, kuzatuv varaqalari va refleksiv savolnomalardan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalar tomonidan bolaning emotsional holatini anglash, tengdoshlari bilan mulo-



qotini tashkil etish, ijtimoiy xatti-harakatlarni rag'batlantirish va moslashtirilgan ta'limiy muhit yaratish bo'yicha amaliy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida kasbiy tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv komponentlari asosiy mezon sifatida belgilandi. Motivatsion komponent bo'lajak tarbiyachining inklyuziv ta'limga ijobiy munosabati va bolaga yordam berish ehtiyoji bilan, kognitiv komponent maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan, amaliy-faoliyatli komponent metodik harakatlar va muloqot texnologiyalarini qo'llash bilan, refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati bilan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligi bir necha o'zaro bog'liq komponentlar asosida shakllanadi. Avvalo, talabalar ijtimoiy intellektni faqat muloqotga kirishish ko'nikmasi sifatida emas, balki bolaning emotsional holatini anglash, ijtimoiy vaziyatni tushunish, munosabatlarda mos xulq-atvorni tanlash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va o'zini guruhda namoyon eta olish qobiliyatlari majmui sifatida qabul qilishi zarurligi aniqlandi. Bu yondashuv bo'lajak tarbiyachining pedagogik fikrlashini kengaytiradi va uni bolaning individual imkoniyatlariga mos metodlarni tanlashga yo'naltiradi.

O'rganishlar davomida talabalar maxsus pedagogika, bolalar psixologiyasi, inklyuziv ta'lim va korreksion-rivojlantiruvchi ishlar bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lsalar-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatildi. Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning emotsional reaksiyasini to'g'ri talqin qilish, uning tengdoshlari bilan muloqotini tashkil etish, ijtimoiy faolligini rag'batlantirish va guruhdagi psixologik muhitni barqarorlashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish ehtiyoji mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy tayyorgarlikni samarali shakllantirish uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida interfaol metodlar, keys-topshiriqlar, rolli o'yinlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, kuzatish va refleksiv tahlil kabi metodlardan tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday metodlar talabalarni real pedagogik muammolarni anglashga, bolaning xatti-harakatini baholashga, moslashtirilgan ta'limiy muhit yaratishga va individual rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga tayyorlaydi.

Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida empatiya, kommunikativ madaniyat, tolerantlik, sabr-toqat, hamkorlikka ochiqlik va pedagogik mas'uliyat kabi shaxsiy sifatning ahamiyati yuqori ekani aniqlandi. Ushbu sifatlar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy intellektni rivojlantirishda tarbiyachining kasbiy kompetensiyalari bilan uyg'unlashganda samarali natija beradi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, nazariya, amaliyot va refleksiyani integratsiyalash bo'lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta'lim sharoitidagi kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashning muhim omilidir.

Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasi maktabgacha ta'limning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqdir. Inklyuziv ta'lim sharoitida tarbiyachi bolalarning faqat bilim va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi shaxs emas, balki ularning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, o'z his-tuyg'ularini anglashi va ifodalashi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi hamda guruh muhitida o'z o'rnini topishiga ko'maklashuvchi muhim pedagogik subyekt hisoblanadi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik mazmunida ijtimoiy intellektni rivojlantirishga oid metodik bilimlar alohida o'rin egallashi lozim.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bo'lajak tarbiyachilarni bunday faoliyatga tayyorlashda an'anaviy nazariy ta'lim yetarli emas. Talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, uning emotsional va kommunikativ ehtiyojlarini tushunish, shuningdek, ijtimoiy moslashuv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishlari zarur. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy intellekt o'yin, muloqot, taqlid, hamkorlik va emotsional aloqalar orqali shakllanishini hisobga olsak, bo'lajak tarbiyachilar o'yin texnologiyalari, guruhli faoliyat, kommunikativ mashqlar va korreksion-rivojlantiruvchi metodlardan samarali foydalanishga tayyor bo'lishi kerak.

Kasbiy tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri pedagogik empatiyani rivojlantirishdir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola ba'zan o'z fikri, istagi yoki emotsional holatini aniq ifodalay olmasligi mumkin. Bunday vaziyatda tarbiyachining kuzatuvchanligi, sabr-toqati, emotsional sezgirligi va individual yondashuvi bolaning ijtimoiy faolligini rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tarbiyachi ota-onalar, defektolog, psixolog, logoped va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash kompetensiyasiga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda refleksiv yondashuvni kuchaytirish zarur. Talaba o'z pedagogik harakatlarini tahlil qila olsa, bolaning rivojlanishidagi ijobiy va muammoli jihatlarni ko'ra olsa, metodik qarorlarini qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lsa, uning kasbiy tayyorgarligi barqaror rivojlanadi. Demak, oliy pedagogik ta'lim jarayonida nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, pedagogik amaliyot, refleksiya va metodik tahlilning uyg'unligi bo'lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta'lim sharoitidagi samarali faoliyatini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni samarali amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Tadqiqot mazmunidan ko'rinadiki, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy rivojlanishi tasodifiy yoki faqat tabiiy jarayon sifatida kechmaydi. U maqsadli pedagogik ta'sir, moslashtirilgan rivojlantiruvchi muhit, emotsional qo'llab-quvvatlash, tengdoshlari bilan muloqotni tashkil etish va individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar orqali shakllanadi.

Ijtimoiy intellekt bolaning ijtimoiy vaziyatlarni anglash, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, o'z emotsiyalarini boshqarish, muloqotga kirishish, hamkorlik qilish va guruh hayotida faol ishtirok etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachi ushbu jarayonda nazariy bilimga ega bo'lish bilan birga, bolalar bilan individual va guruhli ishlash, o'yin faoliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida qo'llash, kommunikativ mashqlarni tanlash, ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish kompetensiyalarini ham egallashi lozim.

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv komponentlarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Motivatsion komponent bo'lajak tarbiyachining inklyuziv ta'limga ijobiy munosabatini, kognitiv komponent maxsus pedagogik va psixologik bilimlarini, amaliy-faoliyatli komponent metodik harakatlarni bajara olish salohiyatini, refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini belgilaydi. Ushbu komponentlar birgalikda rivojlantirilgandagina tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi barqaror va samarali shakllanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida keys-topshiriqlar, rolli o'yinlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, amaliy kuzatish, refleksiv tahlil va korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlardan tizimli foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Natijada ular alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ularning muloqot imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashga tayyor pedagog sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risida Qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori. (2019). Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2022). Ilk qadam davlat o'quv dasturi. Toshkent.
6. Qodirova, F. R., Toshpo'latova, Sh. Q., & A'zamova, M. N. (2019). Maktabgacha pedagogika. Toshkent: Tafakkur.
7. Hasanboyeva, O. U., To'raqulova, X. A., & Haydarova, M. (2018). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Jalolova, G. Q. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
9. Rasulova, M. A. (2021). Inklyuziv ta'lim asoslari. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti.
10. Po'latova, P. M. (2019). Maxsus pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. Mavlonova, R. A., To'rayeva, O. T., & Xoliqberdiyev, K. M. (2018). Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi.
12. G'oziyev, E. G. (2010). Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: Noshir.
13. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
14. Bandura, A. (1977). *Social learning theory*. Prentice Hall.
15. Gardner, H. (1983). *Frames of mind: The theory of multiple intelligences*. Basic Books.
16. Thorndike, E. L. (1920). Intelligence and its uses. *Harper's Magazine*, 140, 227–235.
17. Goleman, D. (2006). *Social intelligence: The new science of human relationships*. Bantam Books.
18. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185-211.
19. UNESCO. (2020). *Global education monitoring report 2020: Inclusion and education: All means all*. UNESCO Publishing.
20. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. *British Educational Research Journal*, 37(5), 813–828.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.